

**JANUBIY KOREYA VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING  
DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI**

*Dushayeva Gulbahor Zoxidjon qizi*

*Toshkent shahridagi Adju universiteti ilmiy kotibi*

*TDSHU mustaqil tadqiqotchisi*

*[gulbahordushaeva13@gmail.com](mailto:gulbahordushaeva13@gmail.com)*

+998995690797

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada Janubiy Koreyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati atroflicha tahlil qilinib, diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi muhimligi ta'kidlangan. O'zaro diplomatic munosabatalarning o'rnatilishi tadqiqotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga yordam berishi hamda aniq tashabbus va tavsiyalar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollarini ochishi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Janubiy Koreya, tashqi siyosat, hamkorlik, diplomatik munosabatlar.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan Koreya Respublikasining diplomatik aloqalari ushbu mintaqa davlatlarning mustaqilikkva erishgandan so'ng sodir bo'ldi. Koreya Respublikasi 1991-yil 30-dekabrda Osiyo-Tinch okean mintaqasi davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi. 1992-yil yanvarda O'zbekiston bilan Koreya Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi.

Janubiy Koreya 1991-yil 30-dekabrda Qozog'iston mustaqilligini tan olgan birinchi davlatlardan biri bo'ldi. 1992-yil 28-yanvarda ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar rasman o'rnatildi<sup>i</sup>. 1993-yil iyun oyida Olmaotada Janubiy Koreya elchixonasi, 1995-yil may oyida Seulda Qozog'iston elchixonasi ochildi<sup>ii</sup>. Bu qadamlar mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Janubiy Koreya va Qirg'iziston o'rtasidagi aloqalar so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, 1992-yilda o'rnatilgan diplomatik aloqalardan turli sohalardagi

hamkorlikni chuqurlashtirishga o'tdi. 2013-yilda Qirg'iziston Prezidenti Almazbek Atambayev va 2014-yilda Jogorku Kenesh raisi Asilbek Jeenbekovning tashriflari<sup>iii</sup> ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilgani bu jarayondagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi.

Koreya Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 27-aprelda o'rnatilgan<sup>iv</sup>. O'shandan buyon ikki tomonlama aloqalar siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikning ko'plab jahbalarini qamrab olgan holda sezilarli darajada kengaydi. Har ikki davlat bir-birini strategik sherik sifatida ko'radi, bu esa o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Koreya Respublikasi va Turkmaniston Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 7-fevralda o'rnatilgan<sup>v</sup>. Ikki tomonlama aloqalar siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikning ko'plab jahbalarini qamrab olgan holda sezilarli darajada kengaydi. Har ikki davlat bir-birini strategik sherik sifatida ko'radi, bu esa o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu aloqalar o'zaro hamkorlikka intilish va turli sohalarda tajriba almashish tufayli rivojana boshladi. 2007-yilda Ashxobodda Koreya Respublikasi elchixonasi, 2013-yilda Seulda Turkmaniston elchixonasi ochildi.

### **Janubiy Koreya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yuqori darajadagi ikki tomonlama almashinuvlar<sup>vi</sup>**

	O'zbekiston	Qozog'iston	Turkmanisto	Qirg'iziston	Tojikisto
<b>Koreya Respublika si tomonidan</b>	1994. Kim Yon Sam 2005. No Mu Xyon	2004. Roh Mu Xyun 2009. Li Myon Bak	2014. Pak Kin Xe 2019. Mun Je In		
<b>Markaziy Osiyo</b>	2009. Li Myon Bak	2011.Li Myon Bak	2024. Yun Sok Yol		

<b>davlatlariga tashrifi</b>	2011. Li Myon Bak 2014. Pak Kin Xe 2019. Mun Je In 2024. Yun Sok Yol	2012.Li Myon Bak 2014.Pak Kin Xe 2019. Mun Je In 2024. Yun Sok Yol			
<b>Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan Koreya Respubliaksi ga tashrif</b>	I. Karimov 8 marta (1992; 1995; 1999; 2006; 2008; 2010; 2015) Sh. Mirziyeyov 2 marta (2017; 2021)	Nazarboyev 6 marta (1990; 1995; 2003; 2010; 2012; 2016) To'qayev 1 marta (2021)	Berdimuhamed ov 2 marta (2008; 2015)	1997. Akayev 2007. Atambayev 2013. Atambayev	2005. Emomali Rahmon 2015. Emomali Rahmon

Ushbu jadval Janubiy Koreya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi yuqori darajadagi ikki tomonlama almashinuvlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Unga ko'ra, Janubiy Koreya yetakchilarining Markaziy Osiyo mamlakatlariga tashriflari va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Janubiy Koreyaga tashriflari haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib, Janubiy Koreya bilan O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtasidagi yuqori darajadagi almashinuvlarning mustahkam namunasini ko'rsatgan holda, ularning Janubiy Koreya tashqi siyosatidagi strategik ahamiyatini namoyon etadi. O'zbekiston va Koreya Respubliaksi o'rtasidagi Davlat rahbarlari tashriflaridan ko'rinish turibtiki, O'zbekiston eng barqaror aloqalarga ega hisoblanadi. Qozog'iston ham muhim ikki tomonlama hamkorlikda faol hisoblanadi. Aksincha, Qirg'iziston va Tojikiston misolida davlat rahbarlari tashriflari nisbatan kam hisoblanadi va bu esa boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga

nisoabatan yuqori darajadagi diplomatik almashinuvlar nisbatan pastroq ekanligini ko'rsatadi. Bu shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreya barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni davom ettirib kelayotgan bo'lsa-da, uning O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston bilan o'zaro aloqalari sezilarli darajada faolroq va iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlikka ustuvor ahamiyat qaratishi mumkin<sup>vii</sup>.

Ro De U hukumati (1988-1993) 1991-yil oxirida sobiq ittifoq parchalanib ketganidan so'ng 1992-yil boshida mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan, biroq o'zi tomonidan Markaziy Osiyoga yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirmagan. Biroq 1990-yil noyabr oyida Ro De U ma'muriyati Qozog'iston prezidenti N.Nazarboyevni Koreya Respublikasiga taklif etib, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, diplomatik va iqtisodiy hamkorlikka asos soldi. Qolaversa, Ro De U ma'muriyati 1992-yil 29-yanvarda O'zbekiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi va sammit o'tkazdi hmada shu yilning iyun oyida Prezident Islom Karimovni Koreyaga taklif qildi, bu esa Koreyaning Daewoo Motors kabi kompaniyalarining sarmoya kiritishiga hissa qo'shdij<sup>viii</sup>.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Kim Yon Sam hukumati (1993-1998) Koreya Respublikasi Prezidentining 1994-yil iyun oyida O'zbekistonga tashrifi chog'ida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yuqori darajadagi diplomatik aloqalar o'rnatish tashabbusi bilan chiqqan edi. Shimoliy Koreyada birinchi yadroviy inqiroz boshlanishi, ichki siyosiy va iqtisodiy islohotlarning ustuvorligi tamoyilining shakllanishi munosabati bilan Markaziy Osiyo mamlakatlariga qiziqish pasayganiga qaramay, Kim Yon Sam hukumati iqtisodiy hamkorlikka katta e'tibor qaratdi. Natijada 1995-yil fevral oyida O'zbekiston Prezidenti I. Karimov va shu yilning may oyida Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyev, 1997-yil iyun oyida Qirg'iziston Prezidenti A.Akaev Janubiy Koreyaga tashrif buyurib, Prezident Kim Yon bilan oliy darajadagi uchrashuvlar o'tkazdilar<sup>ix</sup>.

Kim De Jung (1998-2003) davrida Markaziy Osiyoga yuqori darajadagi tashriflar 1997-yil dekabrida yuz bergen valyuta inqirozi, iqtisodiy va diplomatik munosabatlarning ustuvorligi kabi sabablarga ko'ra amalga oshirilmadi. Inqirozdan

chiqish masalalari, Shimoliy Koreyaga nisbatan yarashuv va hamkorlik siyosati hamda to'rt qo'shni davlat o'rtasidagi diplomatiyaga e'tibor qaratildi. Biroq Prezident Islom Karimov 1999-yil oktabr oyida Janubiy Koreyaga tashrif buyurib, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga o'z hissasini qo'shgan.

No Mu Xyon ma'muriyati davrida (2003-2008-yillarda) 2003-yilda boshlangan neft narxining keskin oshishi tufayli energiya xavfsizligiga qiziqish kuchayganligi sababli Markaziy Osiyoga yuqori darajadagi tashriflar qayta tiklandi. Prezident No Mu Xyon 2004-yil sentabr oyida Qozog'istonga tashrif buyurdi. 2005-yil may oyida O'zbekistonga tashrif buyurib, energetika va resurs diplomatiyasini mustahkamlash siyosatini faol ilgari suruvchi yuqori darajadagi muzokaralar o'tkazdi. No Mu Xyon ma'muriyati Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarini Koreyaga tashrif buyurishlari uchun taklif qildi va shunga mos ravishda Prezident I.Karimov 2006-yil mart oyida Janubiy Koreyaga, 2007-yil noyabr oyida Qirg'iziston Prezidenti A.Atamboev tashrif buyurdi. Janubiy Koreya-O'zbekiston sammiti tufayli ikki tomonlama munosabatlар maqomi strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Xususan, No Mu Xyon ma'muriyati Markaziy Osyoning beshta davlati va Janubiy Koreya vakillari ishtirokida "Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi hamkorlik forumi"ni o'tkazishga ko'maklashdi. Birinchi forum 2007-yil 15-noyabrdada Seulda bo'lib o'tdi. Ayni paytda Forum tashqi ishlar vazirlari darajasiga ko'tarilgan<sup>x</sup>.

Li Myon Bak ma'muriyati davrida (2008-2013-yillar) Li Myon Bak ma'muriyatining energiya va resurs diplomatiyasi hamda "Yangi Osiyo hamkorlik diplomatiyasi"ni keng ko'lamli targ'ib etishi natijasida Markaziy Osiyoga yuqori darajadagi tashriflar tez-tez bo'lib turdi. Prezident Li Myon Bak 2009-yilning may oyida O'zbekiston va Qozog'istonga tashrif buyurib, salmoqli natijalarga erishdi. Xususan, Qozog'istonga tashrifi chog'ida Prezident Li Myon Bak va Prezident N.Nazarboyev Janubiy Koreya-Qozog'iston munosabatlari maqomini "strategik sheriklik" darajasiga ko'tarishga kelishib oldilar, shundan so'ng Koreya Prezidenti Qozog'istonga qo'shimcha rasmiy tashriflarni amalga oshirdi. Prezident

N.Nazarboyev 2010-yil aprel va 2012-yil mart oylarida ham (Yadro xavfsizligi sammitida ishtirok etish uchun) Seulga tashrif buyurdi. Shuningdek, Prezident I.Karimov Janubiy Koreyaga 2008-yil avgust, 2010-yil va 2012-yil sentabr oylarida uch marta tashrif buyurib, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga harakat qildi<sup>xi</sup>.

Pak Kin Xe hukumati (2013-2017) Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida “Yevroсиyo tashabbusi (Birlashgan qit'a, tinch qit'a, ijodiy qit'a)”ni ilgari surdi. Darhaqiqat, Prezident Park 2013-yil sentabr oyida Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan G20 sammiti chog'ida Prezident Nursulton Nazarboyev bilan sammit uchrashuvi o'tkazdi<sup>xii</sup>. 2014-yilning iyun oyida u Janubiy Koreya tarixida ilk bor Markaziy Osyoning uchta davlati – Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmanistonga tashrif buyurdi va ushbu davlatlar rahbarlari bilan yuqori darajadagi uchrashuvlar o'tkazdi. Prezident Park, shuningdek, Prezident Nursulton Nazarboyevni 2016-yilning noyabr oyida Koreyaga tashrif buyurishga taklif qilgan va har ikki yetakchi ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni butunlay yangi bosqichga olib chiqish uchun hamkorlik qilishga kelishib olgan. Biroq prezident Pakning impichmentidan so'ng muddatidan oldin iste'foga chiqishi va Qozog'istonda iqtisodiy hamkorlik bo'yicha uchta yirik loyiha muvaffaqiyatsizlikka uchragani tufayli ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik keskin pasayib ketdi<sup>xiii</sup>.

Mun Je In hukumatining “Yangi Shimoliy siyosati” (2017-2022) Markaziy Osiyoga nisbatan yuqori darajadagi diplomatiyani ilgari surish omili bo'ldi. Darhaqiqat, Prezident Mun Je In 2019-yil aprel oyida Markaziy Osyoning uchta davlatiga (O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston) tashrif buyurdi. O'sha yilning iyul oyida Bosh vazir Li Nak Yong diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon avvallari bosh vazirlar darajasida yoki undan yuqori darajada tashriflar bo'limgan Qirg'iziston va Tojikistonga tashrif buyurdi, shu tariqa yuqori darajadagi diplomatiyani rivojlantirish yo'lida yana bir qadam tashladi<sup>xiv</sup>.

Koreya Respublikasi va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi diplomatik aloqlarning o'rnatilishi 1990-yillarning boshidan sovet ittifoqi parchalanib,

postsoviet davlatlari mustaqillikka erishgandan keyin sodir bo'lganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Diplomatik munosabatlar o'rnatalgandan so'ng ikki tomonlama yuqori darajadagi tashriflar munosabatlarning mustahkamlanishiga hissa qo'shganini va savdo-iqtisodiy, madaniy sohalardagi hamkorlik uchun asos bo'lib xizamt qilgan. Koreya tashqi siyosatining Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan evolyutsiyasi qanday qilib dastlabki diplomatik tashabbuslardan mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadigan ko'p qirrali sheriklik munosabatlarini yaratishga o'tganini asosiy uchrashuvlar va erishilgan kelishuvlar tahlili asosida ko'rsatilgan.

---

<sup>i</sup> Министерство иностранных дел Республики Казахстан.

<https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa/press/article/details/453?lang=ru>.

<sup>ii</sup> Альмуканова А. Эволюция сотрудничества между Республикой Казахстан и Южной Кореей.

[https://el.kz/evolyutsiya\\_sotrudnichestva\\_mezhdu\\_respublikoy\\_kazakhstan\\_i\\_yuzhnay\\_koreey\\_23534/](https://el.kz/evolyutsiya_sotrudnichestva_mezhdu_respublikoy_kazakhstan_i_yuzhnay_koreey_23534/).

<sup>iii</sup> Ministry of Foreign Affairs, Republic of Korea. [https://www.mofa.go.kr/eng/nation/m\\_4902/view.do?seq=102](https://www.mofa.go.kr/eng/nation/m_4902/view.do?seq=102).

<sup>iv</sup> Ministry of Foreign Affairs, Republic of Korea.

[https://overseas.mofa.go.kr/eng/nation/m\\_4902/view.do?seq=124](https://overseas.mofa.go.kr/eng/nation/m_4902/view.do?seq=124).

<sup>v</sup> Посольство Республики Корея в Туркменистане. [https://overseas.mofa.go.kr/tm-ru/brd/m\\_9178/view.do?seq=696875&srchFr=&srchTo=&srchWord=&srchTp=&multi\\_itm\\_seq=0&itm\\_seq\\_1=0&itm\\_seq\\_2=0&company\\_cd=&company\\_nm=](https://overseas.mofa.go.kr/tm-ru/brd/m_9178/view.do?seq=696875&srchFr=&srchTo=&srchWord=&srchTp=&multi_itm_seq=0&itm_seq_1=0&itm_seq_2=0&company_cd=&company_nm=).

<sup>vi</sup> Ministry of Foreign Affairs of Republic of Korea. [https://www.mofa.go.kr/eng/wpge/m\\_21618/contents.do](https://www.mofa.go.kr/eng/wpge/m_21618/contents.do).

Ко Джэ Нам. 30 лет дипломатических отношений на высшем уровне между Республикой Корея и Центральной Азией: оценка и задачи.

<https://www.kf.or.kr/korcenRus/na/ntt/selectNttInfo.do?mi=1869&bbsId=1336&nttSn=112129>.

<sup>vii</sup> К. Д. Нам, "30 лет дипломатических отношений на высшем уровне между Республикой Корея и Центральной Азией: оценка и задачи," 29 07 2022. [Onlayn]. Available:

<https://www.kf.or.kr/korcenRus/na/ntt/selectNttInfo.do?nttSn=112129&bbsId=1336>.

<sup>viii</sup> Cho, Y. (2019). "The Evolution of South Korea-Central Asia Relations: From Economic to Strategic Partnerships." Asian Perspective, 43(2), 195-213.

<sup>ix</sup> Kim, H. J. (2016). "Energy Diplomacy and South Korea's Engagement in Central Asia." Energy Policy, 95, 500-509.

<sup>x</sup> Lee, S. Y. (2018). "South Korea's Investment Strategies in Central Asia: Opportunities and Risks." Investment and Development Journal, 14(3), 210-225.

<sup>xi</sup> "Ministry of Foreign Affairs Republic of Korea," [Onlayn]. Available:  
[https://www.mofa.go.kr/eng/wpge/m\\_21618/contents.do](https://www.mofa.go.kr/eng/wpge/m_21618/contents.do).

<sup>xii</sup> "Секретариат Форума сотрудничества «Центральная Азия – Республика Корея», [Onlayn]. Available:  
<https://www.kf.or.kr/korcenRus/cm/cntnts/cntntsView2.do?mi=1925>.

<sup>xiii</sup> Y. J. Choi, "SOUTH KOREA'S REGIONAL STRATEGY AND MIDDLE POWER ACTIVISM," The Journal of East Asian Affairs, %1-tom23, %1-son1, pp. 47-67, Spring/Summer 2009.

<sup>xiv</sup> К. Д. Нам, "30 лет дипломатических отношений на высшем уровне между Республикой Корея и Центральной Азией: оценка и задачи," 29 07 2022. [Onlayn]. Available:  
<https://www.kf.or.kr/korcenRus/na/ntt/selectNttInfo.do?nttSn=112129&bbsId=1336>.